



## O'ZBEKISTON TARIXI - YANGI O'ZBEKISTON TARAQQIYOTI UCHUN POYDEVOR

Teshayev Azizbek To'ynor o'g'li

Buxoro davlat universiteti

Boshlang'ich ta'lif metodikasi kafedrasi doktoranti

[a.t.leshayev@buxdu.uz](mailto:a.t.leshayev@buxdu.uz)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O'zbekiston tarixi, uning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni va ahamiyati, mustaqillik yillarda erishilgan yutuqlar, xalqaro tajribalar, dunyo hamjamiyatida mamlakatimizning o'rni va nufuzi, yurtimizning strategik rivojlanish bosqichlari, ajdodlar merosi, jadidlarning ma'rifatparvarlik qarashlari, inson qadriga e'tibor, Yangi O'zbekiston sharoitida Uchinchi Renesans poydevorining yaratilishi, O'zbekiston tarixi fanini o'qitish jarayonida tarkib toptirish usullari, "O'zbekiston tarixi" asosida talabalarda ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasini rivojlantirishda ularning tanqidiy fikrlash, fuqarolik faolligi va axloqiy ongni tarbiyalovchi samarali metodikalardan foydalanishning muhim ahamiyatga egaligi haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** O'zbekiston tarixi, jamiyat taraqqiyoti, mustaqillik, xalqaro tajribalar, dunyo hamjamiyat, strategik rivojlanish, ajdodlar merosi, jadidchilik harakati, inson qadri, Yangi O'zbekiston, Uchinchi Renesans, ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi, o'zlikni anglash, yuksak ma'naviyat.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается история Узбекистана, его место и значение в развитии общества, достижения в годы независимости, международный опыт, место и авторитет нашей страны в мировом сообществе, этапы стратегического развития нашей страны, наследие предков, просветительские взгляды джадидов, внимание к человеческим сеностям, создание фундамента третьего Ренессанса в условиях нового Узбекистана, история Узбекистана и Узбекистана. содержание в процессе преподавания истории методи, В основе "истории Узбекистана" лежит важность использования эффективных методик воспитания у студентов социално активной гражданской компетентности, воспитания у них критического мышления, гражданской активности и нравственного сознания.

**Ключевые слова:** история Узбекистана, развитие общества, независимость, международный опыт, мировое сообщество, стратегическое развитие, наследие предков, джадидистское движение, человеческое достоинство, новый Узбекистан, третий Ренессанс, социално активная гражданская компетентность, самосознание, высокая духовность.

**Annotation:** in this article, The History of Uzbekistan, its place and importance in the development of society, achievements in the years of independence, international experiences, the place and prestige of our country in the world community, stages of strategic development of our country, ancestral heritage, enlightenment views of the jadids, attention to human value, the creation of the foundation of the third renaissance in, On the basis of the" history of Uzbekistan", students are told about the importance of their critical thinking, civic activism and the use of effective methodologies that educate moral consciousness in the development of socially active civic competence.

**Keywords:** history of Uzbekistan, development of society, independence, international experiences, World Community, Strategic Development, ancestral heritage, jadidism movement, human value, New Uzbekistan, third Renaissance, socially active civic competence, self-awareness, high spirituality.

Vatan - bu kishi tug'ilib o'sgan va o'zini uning fuqorasi xisoblagan mamlakat, ona yurt. Vatan - kishining tug'ilib o'sgan o'lkasi shahri yoki qishlog'i, yurt, diyor. Vatan - turar joy, boshpana, makon, uy. Shuning uchun ham biz Vatan so'zini ko'p ishlatalamiz, ayniqsa qadriyatlarimizning belgilashda, masalan, Vatan tuprog'i, Vatan adabiyoti, Vatan tuyg'usi, Vatan tarixi.. Vatan chegarasini uning tarixi belgilaydi. Shuning uchun ham vatan tarixini qaytarib yoki to'xtatib bo'lmaydi. Shuning uchun ham Vatan tarixini bo'yoqlarsiz, obyektiv tarzda o'rganishimiz lozim.

O'zbekiston tarixi fani komil, ma'naviy boy insonni tarbiyalashdagi ahamiyati beqiyosdir.Komil inson tushunchasiga yurtbosimiz shunday ta'rif beradilar: "Komil inson deganda biz avvalo ongi yuksak,



mustaqil fikrlay oladigan, xulq-atvori bilan o'zgalarga ibrat bo'ladigan bilimli, ma'rifatli kishilarni tushunamiz. Ongli bilimli odamni oldi qochdi gaplar bilan aldab bo'lmaydi, u har bir narsani aql-mantiq tarozisiga solib ko'radi, o'z fikr o'yi, xulosasini mantiq asosida ko'rgan kishi yetuk odam bo'ladi". Bugungi kunda xalqning, ayniqsa, yoshlarning ma'naviy ruhini mustahkamlash va rivojlantirish borasidagi ishlar davlatning oldida turgan muhim vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

Ma'naviyat, ma'naviy barkamollik shundaygina kishi ruhiga kirib qolmaydi. Unga har kuni va har soatda tinmay sabr-bardosh bilan mehnat qilish orqali yetishtirish mumkin. Bu xayrli ishda O'zbekiston tarixini o'rganishning o'rni beqiyosdir. "Tug'ilib o'sgan yurtida o'zini boshqalardan kam sezmay, boshini baland ko'tarib yurishi uchun insonga, albatta tarixiy xotira kerak. tarixiy xotirasi bor inson - irodali inson. Kim bo'lishdan qat'iy nazar, jamiyatning har bir a'zosi o'z o'tmishini yaxshi bilsa, bunday insonlarni yo'ldan urish mumkin emas. Ayniqsa bunday insonlarni har xil aqidalar ta'siriga tortish mushkul bo'ladi".

O'z o'tmishimizga, tariximizga va madaniyatimizga yetarli e'tiborda bo'limganimiz sababli nafaqat yoshlarimiz, hatto yoshi ulug' avlodlarimizning ham aksariyat ko'pchiligi, shu jumladan ziylolarimiz ham o'z ona yurt tarixini bilmaydilar. Chunki sovet hokimiyati yillarida maktablarimizda Rossiya tarixini, Rumo, Vaviloniya, Vizantiya, Fransiya, Amerika, ingliz va boshqa jahon mamlakatlari tarixini o'qitdik, ammo O'zbekiston tarixiga e'tibor berilmadi. Albatta jahon tarixini ham yoshlarimiz bilishlari kerak, ammo o'z yurtining Vatan tarixi bilmay bo'lmaydi.

O'zbekistonda tarixan qisqa fursatda butunlay yangicha siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy-ma'rifiy va madaniy muhit yaratildi. Bu esa mamlakat obro'-e'tibori va nufuzini oshirishga xizmat qilayotgan evrilishlarga asos bo'lmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoevning "Buyuk kelajak bugundan boshlanadi" degan da'vati, aytish mumkinki, Yangi O'zbekistonni barpo etish va Uchinchi Renessans asosini yaratish borasidagi ezgu g'oyaning reallikka ko'chishini yanada jadallashtirdi.

Darhaqiqat, mustaqillik yillarida yangi davlat va jamiyat qurish yo'lida ulkan islohotlar amalga oshirilib, bu boradagi sa'y-harakatlar oxirgi besh yillikda, ayniqsa, sifat jihatidan bir necha pog'ona yuqori bosqichga ko'tarildi. Ta'bir joiz bo'lsa, mamlakat taraqqiyotida tamomila yangi davr boshlandi. Xalqaro ekspertlar tarix nuqtayi nazaridan o'ta qisqa vaqt mobaynida yangi ko'rinishdagi O'zbekiston vujudga keldi, deya e'tirof etishmoqda.

Yangi O'zbekiston - mamlakatimiz taraqqiyotining muhim strategik islohotlar davri hisoblanib, erkin iqtisodiy hududlar faoliyatiga keng imkoniyatlar va imtiyozlar berilishi, kichik sanoat zonalari faoliyatining yo'lga qo'yilishi, texnopark va texnopolislarning tashkil qilinishi, hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi uchun mahalliy budjet mablag'larining ma'lum bir qismi yo'naltirilishi, valuta konvertatsiyasi, tadbirkorlar uchun turli soliq imtiyozlari va kam foizli bank kreditlari hamda jismoniy shaxslar uchun uy-joy olish maqsadida imtiyozli subsidiyalar va kreditlar taqdim etilishi - bularning bari barcha soha va tarmoqlarda ijobjiy o'zgarishlar yasashi bilan birga inson qadriga e'tiborning kuchayganligini moqda.

So'nggi yillarda xalqaro miqyosda mamlakatimizning jahondagi obro'-e'tibori misli ko'rilmagan darajada ko'tarildi. Bunga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev tashabbusi bilan boshlangan dadil o'zgarishlar jamiyatimiz, davlatimiz rivojlanishining yangi mafkurasi, bir so'z bilan aytganda, Yangi O'zbekistonni bunyod etish borasida barcha sohalarda boshlangan islohotlar hal qiluvchi ahamiyat kasb etdi.

Ijtimoiy jamiyatimizda yangi muhit yaratilib, barcha jabhadagi islohotlar jadal tus oldi. Shu boisdan davlatimiz rahbarining Yangi O'zbekistonni bunyod etish, Uchinchi Renessans poydevorini qo'yish tashabbusi yurtdoshlarimiz qalbidan chuqur joy olib, umummilliy harakatga aylandi. Ushbu ezgu g'oya xalqimizning bunyodkorlik va yaratuvchanlik fazilatlarini yuzaga chiqardi.

O'zbekistonni o'z tarixiy, sivilizatsion o'rnini yangidan tiklash, o'zbek xalqining genetik insoniy salohiyatiga monand taraqqiyot darajasini ta'minlash, Uchinchi Renessans tamal toshini qo'yishning ayni mavridi keldi. Bu shunchaki shior yoki umumiylar da'vat emas. Yangi O'zbekiston me'mori va tashabbuskori bo'lgan Prezidentimiz tomonidan aniq yo'nalishlar, muayyan dasturlar taqdim etilayotgani ayni haqiqat. Ularda, eng avvalo, ilgarigi Renessanslar saboqlaridan xulosa chiqarib, harakatlarimizni



zamonamiz talablari, davr ruhiyati bilan uyg‘unlashtirmog‘imiz lozimligi, milliy tariximizda ikki Uyg‘onish davrlariga asos solgan ulug‘ ajdodlarimiz, alloma bobolarimizning orzu-intilishlari va armonlarini ro‘yobga chiqarish, eng asosiysi, yosh avlodni bonyodkorlik, yaratuvchanlik, har doim o‘qish va izlanishga da’vat mujassamdir.

Shu bilan birga O‘zbekiston tarixida yurtparvar, millatparvar bobolarimiz “jadidchilik”, ya’ni yangilanish va erkinlik, adolat va tenglik, ilm-ma’rifat va milliy o‘zlikni anglash g‘oyalarini bayroq qilib, kurash maydoniga mardona chiqqanlarini xalqimiz yaxshi biladi. Bu ulug‘ zotlarning maqsadi – jaholat va qoloqlik girdobida qolib kelayotgan Turkiston xalqini dunyoviy ilm-fan, ilg‘or kasb-hunarlar bilan qurollantirib, umumbashariy rivojlanish yo‘liga olib chiqishdan iborat edi.

Jadidlar tomonidan tashkil etilgan yangi usuldagi maktablar, teatr, kutubxona va muzeyslar, gazeta va jurnallar, Turkiston farzandlarini chet ellarga o‘qishga yuborish maqsadida tuzilgan xayriya jamiyatlar xalqimizni necha asrlik g‘aflat uyqusidan uyg‘otdi, milliy ozodlik harakati uchun beqiyos kuch berdi. Afsuski, yurtimizda bolsheviklar diktaturasi o‘rnatilgani, chor mustamlakachilik siyosati yangicha shaklda davom ettirilgani ma’rifatparvar bobolarimizga o‘z maqsad-muddaolarini to‘liq amalga oshirish imkonini bermadi. Lekin ularning ezgu orzu-niyatlari xalqimizning qon-qonida, tarixiy xotirasida saqlanib qoldi va hanuz yashamoqda.

Shu ma’noda, bugungi kunda butun xalqimizning qalbidan chuqur joy olgan, umummilliy harakatga aylanib borayotgan “Yangi O‘zbekiston” g‘oyasi zamirida ana shunday ulug‘ ajdodlarimiz, umuman olganda, milliy tariximizda Birinchi va Ikkinci Uyg‘onish davrlariga asos solgan alloma bobolarimizning orzu-intilishlari va armonlari ham mujassam, desak, adashmagan bo‘lamiz.

Insoniyat tarixi shundan dalolat beradiki, har qaysi xalq hayotidagi ma’naviy uyg‘onish jarayonlari milliy o‘zlikni anglashga olib keladi hamda mamlakatning iqtisodiy, madaniy taraqqiyotini yangi bosqichga ko‘taradi. Bunday ijtimoiy noyob hodisa “Renessans” – uyg‘onish, qayta tiklanish, yuksalish, deb izohlanadi.

Yangi O‘zbekiston zamini qadimda quyidagi ikki buyuk uyg‘onish davri Renessansiga beshik bo‘lganligi jahon ilm-fanida o‘z isbotini topgan va tan olingen tarixiy haqiqatdir:

Birinchi (ma’rifiy – IX-XII asrlar);

Ikkinci (Temuriylar – XIV-XV asrlar).

Hozirgi vaqtida mamlakatimizda uchinchi Uyg‘onish davri jarayoniga o‘tmoqdamiz. “Yangi O‘zbekiston” va “Uchinchi Renessans” so‘zleri hayotimizda o‘zaro uyg‘un va hamohang bo‘lib, xalqimizni yanada ulug‘ maqsadlar sari ruhlantirmoqda.

Yurtimizda demokratik o‘zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylandi. Shubhasiz, bu so‘nggi besh yillikdagi islohotlarimizning eng katta natijasi bo‘lib, yangilanishlar asosida Harakatlar strategiyasi (2017-2021), Taraqqiyot strategiyasi (2022-2026)da Yangi O‘zbekistonni barpo etish va Uchinchi Renessans poydevorini yaratishdek buyuk vazifalarni strategik maqsad qilib qo‘yilgan.

Bugun Yangi O‘zbekiston va Uchinchi Uyg‘onish davri bonyodkorlarining har bir xatti-harakati yurtimiz va xorijlik ekspertlar, siyosatchi va tahlilchilarining diqqat-e’tibori markazida bo‘lib turibdi.

Yangi O‘zbekiston g‘oyasi naqadar hayotiy va yuksak samaralar berishida uning asosiy uch omili mavjud. Jumladan,

-bugungi va ertangi avlodlarimizning Uchinchi Renessans poydevorini qo‘yishdek ezgu maqsad-muddaolari;

-milliy tariximizda Birinchi va Ikkinci Uyg‘onish davrlariga asos solgan ulug‘ ajdodlarimiz, alloma bobolarimizning orzu-intilishlari va armonlari;

-bonyodkorlik, yaratuvchanlik, har doim o‘qish va izlanishga da’vat o‘z mujassamini topgan.

Prezidentimiz qayd etganidek, “Yangi O‘zbekistonni barpo etish - bu shunchaki xohish-istak, sub’ektiv emas, balki tub tarixiy asoslarga ega bo‘lgan, mamlakatimizdagи mavjud siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy-ma’rifiy vaziyatning o‘zi taqozo etayotgan, xalqimizning asriy intilishlariga mos, uning milliy manfaatlariga to‘la javob beradigan ob’ektiv zaruratdir”.



Bugun har tomonlama yangilanayotgan yurtimizda ulug‘ niyatlar bilan poydevori qo‘yilayotgan Yangi Uyg‘onish davrining yorqin sahifalarga boy buyuk tarixi bitilmoqda. Bu olamshumul o‘zgarishlar kelgusi avlodlarga munosib meros qoldirishga xizmat qilishi shak-shubhasizdir.

Yangi O‘zbekiston - demokratiya, inson huquq va erkinliklari borasida umume‘tirof etilgan norma va prinsiplarga qat’iy amal qilgan holda, jahon hamjamiyati bilan do‘stona hamkorlik tamoyillari asosida rivojlanadigan, pirovard-maqsadi xalqimiz uchun erkin, obod va farovon hayot yaratib berishdan iborat bo‘lgan davlatadir.

Yangi O‘zbekistonni barpo etish - yaqin va olis tariximiz, betakror va noyob madaniy boyliklarimizni yanada chuqur o‘rganib, ularga tayanib, mustaqil milliy taraqqiyot yo‘limizni yangi bosqichda davom ettirish demakdir. O‘tgan juda qisqa davrda yurtimizning Markaziy Osiyo mintaqasi va jahon miqyosidagi siyosiy o‘rni va nufuzi keskin oshdi. Dunyoda Yangi O‘zbekistonga nisbatan ishonch ruhi va mamlakatimiz bilan hamkorlikka intilish tamoyillari kuchaydi.

Bugun yurtimizda amalga oshirilgan islohotlarining o‘ziga xosligi shundaki, uning markazidan inson va uning manfaatlari qizil ip bo‘lib o‘tgan. Buni oxirgi besh yillikda davlatimiz inson uchun, xalq uchun ochilgani misolida yaqqol ko‘rish mumkin. Negaki, “Xalq davlat organlariga emas, balki davlat organlari xalqimizga xizmat qilishi kerak” degan g‘oya asosida xalq bilan bevosita muloqot qilish, uning dardu tashvishlari, muammolarini ijobjiy hal etish bo‘yicha mutlaqo yangi tizim yaratildi.

Eng muhimi, ko‘p yillar davomida amal qilib kelingan “davlat - jamiyat - inson” tamoyili o‘zgarib, avvalo, inson, keyin esa, jamiyat va davlat manfaati barcha harakatlarning negiziga qo‘yildi. Pirovardida hayotimizda “Davlat - insonlar uchun” degan xalqchil tamoyil izchillik bilan qaror topmoqda. Inson qadrini ulug‘lash, har kimning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini ta‘minlash mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning ustuvor yo‘nalishiga aylandi.

Shu bilan birga ertamiz egalari bo‘lgan yosh avlodga bo‘lgan e’tibor kuchaytirilib, ta’lim berish, ilm va bilim o‘rgatish tizimi isloh qilinib, tubdan yangilanyapti. O‘quvchi yoshlarga kompetensiyaviy yondashuvlarga asoslanib ta’lim-tarbiya berish, ta’lim sifati mazmunida xalqaro va milliy ta’lim dasturlari talablarini integratsiya qilish, kichik yoshdan boshlab o‘quvchilarda bilim berish bilan birga ularda hayotiy ko‘nikmalarni shakllantirish, amaliy darslarga e’tiborni kuchaytirish, har tomonlama zamon talablariga javob beradigan kadrlar tarbiyalash davlat siyosati darajasidagi vazifa sifatida belgilab berilgan.

Hozirgi vaqtida yurtimizda “Yangi O‘zbekiston maktab ostonasidan boshlanadi” degan g‘oya asosida maktab ta’limi tizimida ham katta o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. Toshkent shahrida va hududlarimizda Prezident maktablari, ijod va ixtisoslashgan maktablar soni ko‘payib bormoqda. Hozirgi paytda respublikamizning turli hududlarida 9 ta ijod maktabi faoliyat ko‘rsayapti. Jumladan,

-Nukus shahrida Ibroyim Yusupov nomidagi xorijiy tillarni o‘qitishga ixtisoslashtirilgan ijod maktabi,

-Qarshi shahrida Abdulla Oripov nomidagi ona tili va adabiyot fanini chuqurlashtirib o‘qitishga ixtisoslashtirilgan ijod maktabi,

-Jizzax shahrida Hamid Olimjon va Zulfiya nomidagi ona tili va adabiyot fanini chuqurlashtirib o‘qitishga ixtisoslashtirilgan ijod maktabi,

-Andijon shahrida Muhammad Yusuf nomidagi ona tili va adabiyot fanini chuqurlashtirib o‘qitishga ixtisoslashtirilgan ijod maktabi,

-To‘raqo‘rg‘on tumanida Ishoqxon Ibrat nomidagi xorijiy tillarni o‘qitishga ixtisoslashtirilgan ijod maktabi,

-Marg‘ilon shahrida Erkin Vohidov nomidagi xorijiy tillar hamda ona tili va adabiyot fanini o‘qitishga ixtisoslashtirilgan ijod maktabi,

-Toshkent shahrida Abdulla Qodiriy nomidagi ona tili va adabiyot fanini chuqurlashtirib o‘qitishga ixtisoslashtirilgan ijod maktabi,

-Xiva shahrida Muhammad Erniyozbek o‘g‘li Ogahiy nomidagi ona tili va adabiyot fanini chuqurlashtirib o‘qitishga ixtisoslashtirilgan ijod maktabi,

-Guliston shahrida Halima Xudoyerberdieva nomidagi ona tili va adabiyot fanini chuqurlashtirib o‘qitishga ixtisoslashtirilgan ijod maktabi.



2025-yilgacha ushbu maktablar sonini 33 taga yetkazish rejalashtirilgan bo‘lib, ularda ijodning boshqa yo‘nalishlarida ham ta’lim berish yo‘lga qo‘yiladi.

Bu borada amalga oshirilayotgan ishlarning barchasi yosh avlodni barkamol, O‘zbekistonning kelajakdagi taraqqiyotini ta’minlashga qodir insonlar etib tarbiyalashga qaratilgan. Yangi O‘zbekiston va Uchinchi Renessansni buniyod etishga qaratilgan bugungi olamshumul sa’y-harakatlar xalqimizning farovon va to‘kis yashashi, farzandlarimizning komil inson bo‘lib voyaga yetishishlari, aholining turmush tarzini yanada yaxshilash hamda salomatligini mustahkamlash, barcha sohada, ayniqsa, ta’lim sohasida ulkan sifat o‘zgarishlari qilish, yurtimizni dunyoga zamonaviy va qudratl, iqtisodiy salohiyati yuqori davlat sifatida yangidan tanitish maqsadi turadi.

Shunday ekan, har bir yurtdoshimizga Uchinchi Renessans davri poydevoriga o‘z g‘ishtini qo‘yish, ya’ni yurtimiz taraqqiyotiga munosib hissa qo‘sishi bu avvalo ularning ijtimoiy faol fuqarolik burchi hisoblanadi.

Bugungi murakkab globallashuv davrida ma’naviyat sohasida vujudga kelayotgan dolzarb muammolar, xalqimiz ma’naviyatini asrash va yanada yuksaltirish, yosh avlodning qalbi va ongini turli zararli g‘oya va mafkuralar ta’siridan saqlash va himoya qilishda Vatan tarixini har tomonlama va chuqur tadqiq etish, birlamchi manbalarga tayanib talqin etish, kelajak avlodga haqiqiy tariximizni o‘qitish orgali ularni yuksak ma’naviyatli shaxslar etib tarbiyalash dolzarb ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimiz tarixida yangi davr - mustaqil taraqqiyot davri boshlandi. Xalqimiz demokratik huquqiy davlat va ochiq fuqarolik jamiyati qurish yo‘lida dastlabki sinovlardan o‘tdi. Istiqlol yillarda yurtimizda milliy ma’naviyatimizni tiklash, uni zamon talablari asosida rivojlantirish bo‘yicha ulkan ishlar amalga oshirildi.

Demokratik islohotlar tobora chuqurlashib, yaangi jamiyat qurish, avvalo, yoshlarga, ularning ma’naviy dunyosi, kasbmahoratiga bog‘liq. Binobarin, yosh avlodda milliy g‘oyani, yuksak ma’naviy fazilatlarni shakllantirishda, milliy ong va sog‘lom fikrni uyg‘otish, ularni Vatan, xalq va istiqlol taqdiri uchun g‘oyaviy kurashchanlik ruhida tarbiyalashda, yuksak ma’naviyatli komil inson bo‘lib shakllanishida, shuningdek, xalqimizning ma’naviy yuksalishi yo‘lida “O‘zbekiston tarixi” fanining ahamiyati katta. Ushbu fanning barcha oliy va o‘rtal maxsus o‘quv yurtlari hamda maktablarda o‘qitilishi ham ana shu yuksak ahamiyat bilan belgilanadi.

“O‘zbekiston tarixi” fanining maqsadi - yosh avlod ongida insoniyat uchun eng muhim bo‘lgan ma’naviyatni shakllantirish hamda yanada yuksaltirish, ular ongida yuksak ma’naviy fazilatlarni shakllantirish jarayonida milliy ong va sog‘lom fikrni uyg‘otish, tarixiy xotiraning yoshlarimizni Vatanga sadoqat hamda millatparvarlik ruhida tarbiyalashdagi mislsiz ahamiyatini ifoda etish, o‘z taqdiri va kelajagini barpo etadigan yosh avlodni yangi jamiyatni yanada rivojlantirishga yo‘naltirilgan g‘oyalar asosida tarbiyalashga qaratilgan bo‘lib, u bir qator vazifalarni amalag oshirishga xizmat qiladi:

- Vatanimiz hududlarida eng qadimgi davrlardan boshlab bo‘lib o‘tgan tarixiy-madaniy jarayonlarni xolisona hamda manbalarga tayangan holda tahlil qilish, o‘rganish, ularning sabablari va mohiyatini o‘chib berish;
- tarixning turli davrlarida mamlakat iqtisodiy va madaniy ravnaqi uchun fidoyilik qilgan davlat arboblari, ulug‘ sarkardalar, ilm-fan hamda madaniyat namoyandalar, milliy qahramonlar faoliyatini xolisona baholash asosida yoshlarimizni millatparvarlik ruhida tarbiyalash;
- tarixiy xotira asosida yoshlarimizni “Biz hech kimdan kam emasmiz va kam bo‘lmaymiz” g‘oyasi ruhida tarbiyalash;
- hozirgi kunda mamlakatimizda o‘tkazilayotgan islohotlar va juda ko‘plab bo‘layotgan zamonaviy o‘zgarishlar mohiyatini, huquqiy-demokratik jamiyat qurish yo‘lidagi yangiliklarni, O‘zbekistonning jahon hamjamiyatga integratsiyalashuvi jarayonlarini yoshlarga yetkazish kabilar shular jumlasidandir. Ushbu belgilangan vazifalar yoshlarda ijtimoiy faol fuqarolik kompetentligini tarkib toptirishga xizmat qiladi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. Toshkent:«O‘zbekiston», 2021. -B. 288



2. M.Axmedov, B.Zaripov Yangi O‘zbekiston Uchinchi Renessans ostonasida. -T: “Zamin nashr”, Toshkent 2021
3. G.Fuzailova. Tarix o‘qitish metodikasi va ta’lim texnologiyalari. Darslik.T.-2020. -B.210.
4. A. Sagdiyev, G. Fuzailova, M. Hasanova. Tarix o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma. - Toshkent-2008. -B.24.
5. Teshayev A. Tarix fanini innovatsion pedagogik texnologiyalar orqali o‘qitish. Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar. 2023/7. ISSN 2181-1709 (P) 4 bet
6. Teshayev A. Bo‘lajak pedagoglarda tarix fanini o‘qitish orqali milliy iftixon tuyg‘usini shakillantirish texnologiyalari. Golden brain. ISSN: 2181-4120 volume 1 | issue 26 | 2023.